

SHARTNOMA № TS- 707
Pullik xizmatlarni ko'rsatish haqida

Toshkent sh.

"20" Iyul 2022 y.

Keyingi o'rinlarda "BUYURTMACHI" deb ataluvchi Караги Висоли Муноқараро ЛОСНУС широкети nomidan узге asosida faoliyat yurituvchi Карагов Караги, bir tomondan va O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi «IT MED» MCHJ, keyinchalik "IJROCHI" deb ataluvchi, Ustav asosida faoliyat yurituvchi direktor V.b Xakimov Artur Bakirovich, boshqa tomondan, bundan keyin birgalikda va yoki alohida "TARAFLAR" va yoki "TARAF" deb nomlanuvchilar, ushbu "SHARTNOMA"ni quyidagilar haqida tuzdi:

1. SHARTNOMANING PREDMETI.

1.1. IJROCHI quyidagi ixtisoslashtirilgan axborot tizimlarini texnik qo'llab-quvvatlash bo'yicha xizmatlarni, bundan keyin XIZMATLAR deb yuritiladi, amalga oshirish majburiyatini o'z zimmasiga oladi:

- Elektron xujjat almashish;
- Poliklinika;
- Tug'itish va o'limni elektron ro'yxatga olish;
- Yuqumli kasalliklar epidemiologik monitoringi;
- Qon xizmati;
- Pochta;
- Kadrlar resurslarini boshqarish;
- Muassasa pasport ma'lumotlari yagona tizimi;
- Xatlov.uz axborot tizimi;
- "TMEK" dasturiy majmuasi;
- Bemor.ssv.uz;
- Ssv.uz rasmiy sayti;
- "Narkologik kasallar hisobini yuritish" avtomatlashtirilgan axborot tizimi;
- "Psixonevrologik kasallar hisobini yuritish" avtomatlashtirilgan axborot tizimi;
- Koronavirus infeksiyasiga (COVID-19) qarshi emlash hisobini yuritish bo'yicha yagona axborot tizimi;
- Xizmat.ssv.local.

BUYURTMACHI ushbu SHARTNOMA shartlariga muvofiq ularni qabul qilish va to'lash majburiyatini oladi.

XIZMAT narxlarini

№	XIZMAT nomlanishi	O'lchov birligi	Miqdor	Narxi, (QQS siz)	Umumiy summa (QQS siz)
Har oylik xizmatlar:					
1	Ixtisoslashtirilgan axborot tizimlarini texnik qo'llab-quvvatlash	Oy	3	255000 so'm	765000
Jami:					(Etti yuz oltmish besh ming) so'm 00 tiyin

2. TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI.

2.1. IJROCHIning majburiyatlari:

2.1.1. XIZMATLARni, 1-ilovaga muvofiq mas'uliyat chegaralarini taqsimlash doirasida, BUYURTMACHI o'zining texnik imkoniyatlaridan kelib chiqib, SHARTNOMAning 3.2, 2.1.3-bandlari bajargandan so'ng 2-ilovasi (IJROCHIGA texnik talablar) shartlariga muvofiq bajarish.

2.1.2. SHARTNOMAning 1-ilovasiga muvofiq jihozlarning nosozligi va unga tegishli bo'lmagan aloqa kanallarining yetishmovchiligi uchun javobgar emas.

2.1.3. IJROCHI, pudratchi bilan alohida SHARTNOMA tuzish sharti bilan BUYURTMACHIning apparat va dasturiy ta'minotini texnik qo'llab-quvvatlash, shuningdek, ixtisoslashgan dasturiy ta'minotni ishlab chiqish va uni keyinchalik boshqarish va qo'llab-quvvatlash uchun outsourcing xizmatlarini ko'rsatishi mumkin.

2.2. BUYURTMACHIning majburiyatlari:

2.2.1. Taqdim etilgan XIZMATLAR uchun o'z vaqtida va to'liq to'lovni amalga oshirish.

2.2.2. 1 (bir) kun ichida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining korporativ tarmog'iga (elektron pochta xizmati va axborot tizimlari) kirish huquqiga ega bo'lgan shaxslarning kadrlar almashinuvi to'g'risida ma'lumot berish.

2.2.3. 2-ilovada ko'rsatilgan barcha texnik talablarga rioya qilish.

2.2.4. IJROCHIning ish vaqtining istalgan vaqtida uning faoliyatiga aralashmasdan, IJROCHI tomonidan taqdim etilayotgan XIZMATLAR sifatini tekshirish huquqiga ega.

3. SHARTNOMA NARXI, TO'LOVNI AMALGA OSHIRISH TARTIBI.

3.1. Oylik to'lov 255000 so'm (ikki yuz ellik besh ming so'm 00 tiyin)ni, SHARTNOMAning umumiy summasi 765000 so'm (Etti yuz besh ming so'm 00 tiyin)ni tashkil etadi, ushbu summa SHARTNOMA davrida texnik ko'mak uchun umumiy xarajatlardir.